



QOBILIYAT-BU SHAXSNING TAKRORLANMAS O’ZIGA XOS XUSUSIYATI

Mamataliyeva Surayyo Jumaboyevna

Namangan viloyati Pop tumani 46-maktab psixologi

Annotatsiya: Bu maqolada qobiliyat va shaxsning o’ziga xos takrorlanmas xususiyatlari haqidagi fikrlar keltirilgan

Kalit so’zlar: Qobiliyat, layoqat, iqtidor, iste’dod, talant, geniallik, qobiliyat turi: umumiy, maxsus.miqdor, pedagogik qobiliyat.

Insonning qobiliyati shunday psixologik xususiyatiki, bilim, ko`nikma, malakalarini egallashi va malakali mutaxassisi bo`lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatning faqat bilim va ko`nikmalarga taalluqli bo`lmaydi. Malaka, ko`nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo`ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo`lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi haqiqatdir. Bolada namoyon bo`ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo`lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta`lim berilishi, qat`iylik, salomatligining yaxshi bo`lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko`pgina sharoitlar bo`lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turibq so`nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo`ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo`lmagan faoliyatlardagina namoyon bo`ladi. o`quvchida ham zaruriy ko`nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo`qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko`rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo`q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo`ladi. Masalan, Albert Eynshteyn o`rta maktabda uncha yaxshi o`qimaydigan o`quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo`lishidan hech narsa dalolat bermas edi. Qobiliyat bilim va malakalarning o`zida ko`rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo`ladi ya`ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo`lgan bilim va



ko`nikmalarni o`zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo`ladi.

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo`lishi bilan aql sifatleri xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo`yib bo`lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatarga qo`yish ham mumkin emas. Agar shu sifatleraning birortasi yoki ularning yig`indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta`siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo`ladi. Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo`lib, shuning bilan birga u ma`lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o`zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko`nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko`nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. qamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta`minlaydilarki, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo`lga kiritiladi. qobiliyatli, ammo noshut inson ko`p narsaga erisha olmaydi. qobiliyat ko`nikmada ro`yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko`nikma va malakalari ko`p qirrali va mukammallashgan bo`ladi. Shuning bilan birga ko`nikma va malalakalar yetishmagan qobiliyatni bir muncha to`ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko`nikmalarni umumlashmasi moxirlik deb ataladi. Moxirlik bu endi qobiliyatning o`zginasidir. Demak, qobiliyat ko`nikma va malakalarning paydo bo`lishi jarayonida shakllanadi.

Har qanday qobiliyat ham murakkab bo`lib, u kishiga turli-tuman talablar qo`yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talabga javob bera olsa kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun o`z qobiliyatligini ko`rsata oladi, agarda xususiyatlardan qaysi biri rivojlanmagan bo`lsa, shaxs mehnatning muayyan turiga nisbatan ham qobiliyatli deb ba?olanadi. Har bir qobiliyatning o`ziga xos tuzilishi mavjud. qobiliyat tarkibida tayanch va yetakchi xususiyatlarni, muayyan asosiy yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim.



Barcha qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat kuzatuvchanlik, bilish ko'nikmasidir. Bu individual narsaning o'ziga xos tomoni, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishlik hisoblanadi.

Quyidagilarni yordamchi xususiyat deb hisoblash mumkin: xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos tuzilishda bo'ladi), emosionallik, ya'ni his tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faoliyatini oshiradi) va shunga o'xshashlar. Amaliy faoliyatning ba'zi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. qobiliyat tuzilishidagi turli xususiyatlarning tarkibi faoliyatning turli davrlarida yoki ijodiyotning bosqichlarida turlicha bo'lishi mumkin. Demak, tuzilish ham barqaror, ham o'zgaruvchandir. Psixologiyada qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida tafovutlanadigan xislatlar fazilatlar yotadi. Shuning uchun har bir shaxsda bir xil natija bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlari bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin ular o'rtasidagi farqlar sifat va miqdor jihatidan bo'lishi mumkin.

Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatlarining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdor tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarni shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi. O'quvchining qobiliyatlari nimaga namoyon bo'lishini va binobarin o'quvchi shaxsini qanday individual psixologik xususiyatlari faoliyatni qay darajada bajarish qobiliyatiga ega ekanligi, ya'ni o'quvchining boshqalarga nisbatan malaka va bilimlarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallab olishini bilish pedagog uchun muhimdir. Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi maqsadga har turli yo'llar bilan borishga imkon beruvchi "o'zgaruvchan miqdor" to'plami sifatida, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi inson psixologik xususiyatlarining yig'indisi sifatida ko'riladi. Bir xususiyatlarni o'rnini ikkinchi bir xususiyatlar bilan bosishning



keng imkoniyatlari mavjud, buni odam o'zida chindan qat'iylik bilan ishlash orqali rivojlantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik.- M.: Aspekt Press, 1999.- 376 s.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007 1-2 kitob.
3. Gamilton. YA.S. “CHto takoe psixologiya”. “Piter”, 2002